

INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

Umaraliyeva Munajatxon Mashrabovna

Ilmiy rahbar:

FarDU amaliy ingliz tili kafedrası katta o'qituvchisi

Abduraxmonova Oydinoy Solijon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti "Ingliz tili va adabiyoti" fakulteti, "Ingliz tili o'qitish metodikasi" kafedrası 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rgatuvchi ustozlar uchun foydali bo'ladigan, tajribadan o'tkazilgan, o'quvchilarga tilni oson o'zlashtirishga yordam beradigan zamonaviy ta'lim standartlariga mos keluvchi o'qitish metodlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: metod, darsliklar, ko'rgazmali qurollar, qo'llanmalar, o'yinlar, guruhlariga bo'linish, audio va video darsliklar, kreativlik.

ABSTRACT

This article describes the methods of teaching that are useful for teachers teaching English as a foreign language, tested and compatible with modern educational standards that help students learn the language easily.

Keywords: method, textbooks, visual aids, manuals, games, grouping, audio and video tutorials, creativity.

Ma'lumki, ingliz tili xalqaro til sifatida, deyarli butun dunyo bo'ylab o'rganuvchilari soni yildan yilga ortib bormoqda. Shu qatorda, O'zbekistonda ham ingliz tilini o'rganish keng qamrovli tus olgan. Ammo, o'zbek tili va ingliz tili boshqa til oilalariga mansub bo'lganligi va grammatik qoidalarida katta tafovutlar bo'lganligi sababli bu tilni o'rganish ba'zi o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'dirmoqda, shunga qaramay O'zbekistonda ham ingliz tilini tez va oson o'rgatish uchun ko'plab foydali zamonaviy interfaol metodlardan foydalanib darslarini boyitib o'quvchilarning qiziqishlarini orttirib borishmoqda. Interfaol so'zi yangi kirib kelgan so'zlardan biri bo'lib bunday metod turlarida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabat va aloqani uzmagan holda kommunikativ usullardan foydalanib darsni shakllantirishni aks ettiradi. Interfaol metodlar ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'zaro faoliyatini

ta'minlovchi, ularni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, shuningdek o'quvchilarda ta'lim olishga bo'lgan shijoatni oshirishga yo'naltirilgan metodlar jamlanmasidir. Maktablarda ingliz tili darslarini tashkil qilish uchun har o'quv yili uchun "student book", "workbook" hamda "teacher's book"lar bilan ta'minlanadilar. Ushbu kitoblarda bir necha turdagi mashqlar tufayli o'rganuvchilarning tilda gapirish, o'qib va eshitib tushunish, jamoalarga bo'linib ishlash hamda yozish qobiliyatlarini rivojlantirib darslarni o'zlashtirishga yordam beradi. Albatta ushbu kitoblarga asoslanib bajarilayotgan mashg'ulotlarning ko'pchiligi o'zaro "kommunikatsion" faollikdan tarkib topgan bo'ladi. Bu begona til bo'lganligi sababli faqatgina bir kitobga tayanib dars o'tish o'quvchilar uchun zerikarli va qiyinroq tuyulishi mumkin, shuning uchun ham o'qituvchilardan har darsga yangidan yangi metodikalar, mashg'ulotlar va o'yinlar orqali mavzuni tushuntirish mahoratlari talab qilinadi. Avvalo, o'qituvchining vazifasi o'quvchilaridan yangi tilni o'rganishdan maqsadi nima ekanligini bilib olishi va qiziqishlari ortishi uchun ularga aloqador bo'lgan kundalik hayotda ishlatiladigan real materiallardan foydalanib mashg'ulotlar tayyorlash, darsga kreativlik va yuqori pozitiv energiya bilan yondashish talab etiladi, chunki o'rgatuvchi o'rganuvchilar uchun ruhlantiruvchi, qo'llab quvvatlovchi va motivatsiya beruvchi manba hisoblanadi. Hozirgi kunda tilni o'rganish uchun zamonaviy interfaol metodlar judayam ko'p bo'lib, quyida ularning eng muhim va samaralilari bilan tanishib chiqamiz.

Ingliz tilini o'qitishning yangi usullaridan biri bo'lgan induktiv metod o'qituvchi va o'rganuvchi orasidagi muloqot orqali va ko'proq o'quvchining aktivligi va o'qituvchining nazorati orqali mavzuni o'zi tushunib olishni anglatadi. O'rganish jarayoni davomida turli xildagi audio va video qo'llanmalardan foydalanish induktiv metodning eng muhim qismini tashkil etadi. Albatta, audio va video materiallar tanlayotganda o'qituvchi o'rganuvchilarning yoshi, tilni bilish darajasi hamda ularning qiziqishlariga asoslanganligiga katta e'tibor berish kerak. Chunki yosh bolalarga dars o'tayotganda ularning darajasi elementaryda bo'lsa ham ularni podkastlar emas ko'proq multfilmlar qiziqtiradi, o'rganuvchi o'smir yoki katta yoshli odam bo'lsada ular tilni o'rganishga endigina kirib borayotgan bo'lsa, ya'ni bilimi boshlang'ish darajada bo'lsa ularga ko'proq oddiy o'tilgan mavzulariga asoslangan sodda shakldagi audio tanlanishi shart, bu o'qituvchiga ham o'quvchiga ham foydali bo'ladi. Katta yoshdagi va yuqori darajadagi o'rganuvchilar esa ko'p holatlarda ilmiy yangi ma'lumot beradigan hayotiy audiolarni eshitib o'zlarini haqiqiy til atmosferasiga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda audio materiallardan foydalanishda audiodan oldingi, davomidagi va audiodan so'ng bajariladigan mashg'ulotlarga e'tibor berilishi, o'quvchilardan savollar so'rab interaktivlikni oshirish muhim rol o'ynaydi. Xorijiy tillarni o'qitishning bir necha intensiv usullari mavjud bo'lib ular: Hissiy-semantik

metod, O'quvchilarning ichki potensiyallaridan foydalanish usuli, Katta yoshdagi o'rganuvchilarni o'qitishning sistematik metodi. O'qitish jarayonining interfaolligiga darslarni tashkillashning shakllari, materiallarni tanishtirishning maxsus usullari, o'quvchilarning gapirish qobiliyati va ularning mahoratlarini shakllantirish orqali erishiladi. (G.Lozanov, lingvist va psixolingvist). O'quvchilarda yangi tilda gapirishni o'rganish ham xuddi chaqaloq o'z tilida gapirgungacha bo'lgan holatga o'xshaydi, ya'ni ikkinchi tilida chiroyli gapirishni o'rganish uchun ko'proq haqiqiy atmosferadagi muloqotlarni va audio materiallarni tinglash tavsiya etiladi, chunki bola ham 2 yil eshitib, ko'rib keyin gapirishni boshlaydi. Video materiallardan foydalanganda esa videodagi obrazlarning tana tili, ishoralari bilan tushunish oson bo'ladi. Bundan tashqari, o'qituvchilarga o'quvchilarning qaysi o'rganish turiga kirishini aniqlab ularga mos holatda darsni olib borish dars jarayonini qiziqarli va tushunarli olib borishga yordam beradi. O'rganish va tanqidiy fikrlash talablarining aniq vazifalariga nisbatan yangi bilimlarni qo'llash imkoniyatlariga ega bo'lgan taqdirda rivojlanadi. (Pesnik, 1987). O'rganishning eng muhim uch turi bo'lib, birinchisi: ko'rib o'rganish (visual); ikkinchisi eshitib o'rganuvchilar guruhi (auditory); uchinchisi harakat bilan (kinesthetic). Qachonki o'qituvchi dars xonada o'quvchilari orasidan ushbu turlardan qaysi biri ko'pligini aniqlab olsagina dars jarayoni osonroq va maroqli bo'ladi. Misol uchun, ko'proq boshlang'ich o'quvchilari ya'ni kichik yoshdagi o'rganuvchilarning ko'p qismini harakat bilan o'rganuvchilar tashkil qiladi, chunki ular judayam aktiv va energiyaga boy bo'ladi. Shuning uchun ham mashg'ulotlarni ularga moslab harakatli o'yinlar orqali tashkil qilish foydali bo'ladi. Lekin, katta yoshdagi o'quvchilarning ko'pchiligi ko'rganini tez va aniq eslab qoladi, bunday o'rganuvchilar uchun har xil ko'rgazmali qurollardan yoki rangli rasmlardan foydalanib so'zlarni yodlatish tez ish beradi. Eshitib o'rganuvchilar guruhi uchun yuqorida aytilgan audio va video qo'llanmalardan foydalanish tavsiya etiladi. Yuqorida aytilgan barcha mashg'ulotlarni tashkillashda o'qituvchi va o'quvchi orasidagi, o'quvchi va o'quvchi orasidagi hamda guruh orasidagi muloqot katta rol o'ynaydi.

Shuningdek, dars mashg'ulotlarini mavzuga aloqador bo'lgan turli xildagi o'quvchilar tomonidan tayyorlangan sahna ko'rinishlari bilan boyitish ham o'qitishning samarali interaktiv metodlaridan biri hisoblanadi. Aniqroq qilib aytganda, mavzu ustoz tomonidan o'quvchilarga tushuntiriladi. O'quvchilarning tasavvur qilishlari uchun mavzuga doir hayotiy misol orqali o'qituvchining o'zi gapirib beradi. Ular mavzuni ham beriladigan mashg'ulotni ham tushunib olganlaridan keyin, o'quvchilardan guruhlarga bo'linish va guruhlarga bo'linib mavzuga moslangan holatda ustozning hayotiy misolidan kelib chiqib yana bir misolni rol o'ynashlar orqali ko'rsatib berishadi. Ular nima demoqchi bo'lganliklarini avvalo boshqa guruhlar tushunchalariga asoslanib topishadi va to'g'ri javob o'zlaridan so'raladi. Bu

mashg'ulotning foydali tomonlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu harakatlar orqali o'rganuvchilar uchun eng foydali va qiziq holatlari bilan esda qolarli bo'ladi. O'quvchilar rol o'ynayotganda grammatik jihatdan to'g'ri va ravon gapirishi hamda so'zlarni bexato talaffuz qilishni o'rganadilar. Boshqa o'quvchilar esa ularni eshitish orqali ishora, emotsiya va tana tili yordamida nima demoqchiliklarini tushunishni o'rganadilar. Bundan tashqari, biz hozir zamonaviy innovatsiyalar va texnologiyalar asrida yashayapmiz, shuning uchun ham dars davomida har xil turdagi onlayn veb saytlardan foydalanib darslarni boyitish va effektiv qilish mumkin. Misol uchun "Kahoot!" va "Quizzes" kabi platformalar o'quvchilar orasida eng mashhurlari bo'lib kelmoqda. Bu kabi platformalarni ishlatish orqali o'quvchi tezlikni aniqlikni va vazifalarni o'z vaqtida qilib borishni o'rganadi. Bu platforma bir guruh uchun tashkillanadi va unda o'yin oxirida g'oliblar jadvali umumiy sinf doskasida aks etadi. O'quvchi bu musobaqa shaklida tashkillangan o'yinda yutib birinchi bo'lish va g'oliblar jadvalida ko'rinish uchun ham yaxshiroq harakat qiladi, bu orqali darsni o'zi izlanish orqali o'zlashtirib oladi. Yuqoridagi platformalardan foydalanishda 2 kishi kelishib 1 javob berishi kerakligi tushuntirilsa, bir biri bilan gaplashib, kelishib savollarga javob berishadi, bu ham interfaollikning kichik shakli hisoblanadi. Bundan tashqari, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahoratlariga ham bog'liq bo'ladi. Shu o'rinda, interfaol metodlarning mashhur turi bo'lgan aqliy hujum mashg'ulotini ham kiritishimiz mumkin, chunki ushbu mashg'ulotda o'qituvchi o'rganuvchilarning mental salohiyatiga hujum uyushtirish orqali darsga qiziqtirib oladi. Ushbu mashg'ulot davomida o'qituvchi ingliz tili terminlaridan foydalanib o'quvchilaridan rasmdagi farqlarni topishini, belgilangan farqlardan nimalar kelib chiqqanini jamoa shaklida muhokama qilishini talab qilib ularning aqliy salohiyatini bilib olishi mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, interfaol metodlar o'qituvchi va o'quvchi yoki o'quvchilar o'zaro dars davomida foydali muloqot usulini bajarib fikrlarini almashishlariga va dars jarayonini qiziqarli ravishda olib borishga yordam beradigan usullardan biri hisoblanib, u o'z ichida bir nechta foydali metodikalardan foydalanishni talab qiladi. Ulardan eng qiziqarli va o'quvchilarning bilimini oshirishga tez foyda beradiganlari aqliy hujum metodi, jamoaviy munozaralar va zamonaviy savol javob platformalaridan foydalanish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. G.Lozanov. Suggestology 1971.
2. Pesnik. 1987
3. D.Xidoyatova. Samarali interaktiv metodlar. 2023.
4. <https://www.Fayllar.org>